

## DEDEKTIV ASARLAR VA ULARNING KOMPOZITSIYASI

### (“YOZ YOMG’IRI” VA “O’NTA NEGR BOLASI” ASARLARI ASOSIDA).

Farg’ona davlat universiteti talabasi

**Nabijonova Diyoraxon**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada detektiv janrning nazariy asoslari hamda badiiy kompozitsiya masalalari ”O’nta negr bolasi” va “Yoz yomg’iri” asarlari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida detektiv asarlarga xos syujet qurilishi, intriga, konflikt, kulminatsiya va yechim bosqichlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Har ikki asarning kompozitsion modeli o‘zaro solishtirilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, asarlardagi obrazlar tizimi, ularning funksional va psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida klassik detektiv kompozitsiya bilan psixologik detektiv model o‘rtasidagi asosiy tafovutlar asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Detektiv asarlar, janr, kompozitsiya, syujet, intriga, konflikt, kulminatsiya, yechim, psixologizm, badiiy tahlil, yopiq makon, obrazlar tizimi, qiyosiy tahlil, badiiy struktura.

**Abstract.** This article presents a comparative analysis of the theoretical foundations of the detective genre and issues of artistic composition using the works "Ten Black Boys" and "Summer Rain". During the study, the stages of plot construction, plot, conflict, climax and resolution characteristic of detective works are scientifically illuminated. The compositional model of both works is compared and their similarities and differences are identified. The system of images in the works, their functional and psychological characteristics are also analyzed. As a result of the study, the main differences between the classical detective composition and the psychological detective model are substantiated.

**Keywords.** Detective works, genre, composition, plot, plot, conflict, climax, resolution, psychologism, artistic analysis, closed space, system of images, comparative analysis, artistic structure

Detektiv janri jahon adabiyotida kitobxon e'tiborini eng tez jalb etuvchi va intellektual mushohadaga chorlovchi yo'nalishlardan biridir. Janrning asosi — mantiqiy jumboq va uning yechimidir. Kompozitsion nuqtayi nazardan detektiv asar o'ziga xos qat'iy qoliplarga ega bo'lib, unda voqealar rivoji odatda jinoyat sodir etilgandan so'ng boshlanadi va retrospektiv tahlil asosida davom etadi. Jahon adabiyotida Artur Konan Doyl, Agata Kristi, Boris Akunin, Remond Chandler, Jon Grishem kabilar o'zbek adabiyotida esa O'lmas Umarbekov, Tohir Maliklar esa shular jumlasidandir.

Dedektiv janrning jahon miqyosidagi cho'qqisi hisoblangan Agata Kristining "O'nta negr bolasi" romani va o'zbek adabiyotida psixologik detektivning o'ziga xos namunasini yaratgan O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" qissasi kompozitsion jihatdan qiyoslanganda, g'arb klassik detektivi va sharqona lirik-psixologik yondashuvning o'ziga xos sintezi namoyon bo'ladi. Kristi asarida "yopiq makon" prinsipi asarning butun syujet o'zagini tashkil qiladi; o'nta qahramonning Zanjirlar oroliga — tashqi dunyodan butunlay uzilgan muhitga joylashtirilishi muallifga personajlar xarakterini ekstremal holatda, o'lim vahimasi ostida ochib berish imkonini beradi. Bu yerda kompozitsiya matematik aniqlikdagi zanjirga o'xshaydi: har bir qahramonning o'limi bolalar she'ri sanog'idagi satrlarga mos kelishi syujetning dinamik va muqarrar fojia sari intilishini ta'minlaydi. Masalan, sudya Uorgreyv obrazida o'tmishda sodir etilgan, ammo qonun jazolay olmagan jinoyatlar uchun "ma'naviy qasos" g'oyasi yotadi. Kristining mahorati shundaki, u o'quvchini asar yakunigacha jinoyatchi aynan shu o'n kishidan biri ekanligiga ishontiradi, biroq kompozitsion yechim — sudyaning o'z o'limini sahnalashtirishi orqali barcha mantiqiy taxminlarni parchalab tashlaydi. Asardagi har bir obraz juda puxta tanlangan, har birining ayblari va ularga beriladigan jazolar ham yozuvchi mahoratining bir dalilidir.

O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" qissasida esa kompozitsion qurilish lirik bo'yoqlar va retrospektiv (o'tmishga qaytish) tahlil asosiga qurilgan bo'lib, bu yerda asosiy urg'u jinoyatning texnik tomoniga emas, balki uning kelib chiqish sabablariga va qahramonlarning ruhiy iztiroblariga qaratiladi. Agar Kristi asarida izquvar obrazi umuman mavjud bo'lmasa (jinoyatchining o'zi izquvar rolini o'ynaydi), Umarbekovda tergovchi

obrazi voqealar markazida turadi. Biroq bu tergovchi an'anaviy "quruq" detektiv emas, balki inson taqdiriga hamdardlik bilan qaraydigan, jinoyat ortidagi ijtimoiy va ma'naviy fojeani ko'ra oladigan shaxsdir. Asar kompozitsiyasida yomg'ir obrazi shunchaki fon emas, balki ramziy-psixologik bog'lovchi vazifasini o'taydi. Yomg'ir jinoyat sodir bo'lgan vaqtda ham, tergov jarayonida ham tinmay yog'maydi, u faqat bir marta yozda juda tez yog'ib o'tadi. U haqiqatni yashiruvchi, ham qahramonlarning ifloslangan vijdonini ramziy ma'noda so'roqqa tutuvchi vositadir. Umarbekov obrazlar tizimida ayol psixologiyasi, oilaviy xiyonat va ma'naviy mas'uliyat masalalari detektiv syujet bilan ustalik bilan qovushtirilgan.

Ushbu ikki asarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Agata Kristi uchun kompozitsiya — bu o'quvchi bilan o'ynaladigan intellektual boshqotirma, unda har bir detal (negr haykalchalari, she'r satrlari) jinoyat mexanikasini yig'ish uchun xizmat qiladi. O'lmas Umarbekovda esa kompozitsiya — inson ruhining laboratoriyasidir. "Yoz yomg'iri"da jinoyatchining aniqlanishi kitobxon uchun kutilmagan zarba emas, balki achchiq bir xulosadir. Kristida sudya Uorgreyv — fanatik adolat tarafdori, o'zini Xudo o'rniga qo'yib hukm chiqaruvchi sovuqqon "shaxmat ustasi". Umarbekov qahramonlari esa hayotning murakkab chorrahalarida adashgan, tuyg'ulari va vijdoni o'rtasida qolgan tirik insonlardir. Kristining "O'nta negr bolasi" asaridagi kulminatsiya barcha qahramonlarning halok bo'lishi bilan yakunlansa, Umarbekovning "Yoz yomg'iri"da asosiy nuqta — qahramonning o'z o'tmishi va qilgan ishining mohiyatini anglab yetishi, ma'naviy inqirozidir.

Xulosa qilib aytganda, klassik ingliz detektivi bilan o'zbek psixologik detektivi o'rtasidagi farq ularning kompozitsion maqsadlarida yaqqol ko'rinadi. Kristi mantiqning g'alabasini va jinoyatning fosh etilishi muqarrarligini isbotlasa, Umarbekov har qanday jinoyat, avvalo, insonning o'z vijdoni oldidagi mag'lu-biyati ekanligini badiiy tahlil qiladi. Bu ikki xil yondashuv detektiv janrining naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini, u faqatgina sarguzasht emas, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy masalalarni ko'tarib chiquvchi jiddiy adabiy yo'nalish ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida keltirilgan dalillar shuni

ko'rsatadiki, kompozitsion yaxlitlik har ikki asarda ham janr talablaridan kelib chiqib, o'quvchining estetik va mantiqiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Kristi A. O'nta negr bolasi: Roman / Tarjimon: M. Mirzoidov. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. – 256 b.
2. Umarbekov O'. Yoz yomg'iri: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: "Sharq", 2012. – 320 b.
3. Quronov M., Sultonov I. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: "Akademnashr", 2010. (Detektiv janri va kompozitsiya qismlari uchun).
4. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006. (Badiiy asar tahlili va psixologizm masalalari).
5. Uraeva D. O'zbek detektiv adabiyoti taraqqiyoti masalalari. – Toshkent: "Fan", 2011.
6. Mamatov A. Badiiy asar kompozitsiyasi va uning elementlari. – Farg'ona: "Farg'ona universiteti nashriyoti", 2015.
7. Todorov T. Detektiv asarlar tipologiyasi // Jahon adabiyoti jurnali. – 2018. – №4. (Nazariy asoslar uchun).